



## JAZO TUSHUNCHASI, MAQSADI VA VAZIFALARI. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI NORMALARINING TUSHUNCHASI

Nazarov Ilxambek Alimovich

O'z Res IIV Malaka oshirish institute

katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20717884>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 12-iyun 2026 yil  
Ma'qullandi: 14- iyun 2026 yil  
Nashr qilindi: 16- iyun 2026 yil

### KEYWORDS

Azaldan jazolash uchun jinoyatchini qilmishning og'irligini hisobga olgan holda majburlash, ishchi uylariga joylashtirish, biron imtiyozdan mahrum qilish, jismoniy jazolash, ozodlikdan mahrum qilish, surgun qilish, qatl etish kabi usullar qo'llanilgan.

### ABSTRACT

Jazolash deganda insonga nisbatan uning bo'ysunmaganligi yoki ahloqqa zid xulqiga javoban biron bir noxush, ma'qullanmaydigan chorani qo'llash tushuniladi. Individning ijtimoiy maqbul ahloq modeli va ijtimoiy harakatini shakllantirish uchun jazolashdan foydalaniladi. Jazolashdan ko'zda tutilgan maqsad – insonni tegishli xulq-atvorga undash. Bu inson xulqi nazoratining eng umumiy keng tarqalgan uslubidir. Bolalarni uning ota-onasi yoki ularni o'rnini bosuvchilar, tarbiyachilar, o'qituvchilar jazolasalar, kattalarni, masalan, ishchi-xizmatchilarni ularning ish beruvchilari yoki uning vakolatli shaxslari jazolashlari mumkin. Harbiylarni nojo'ya qilmishlari uchun ularning komandirlari, qul va krepostnoylarni ularning xo'jayinlari jazolar edi. Jinoyatchilik uchun esa, sudning hukmi bilan qo'llaniladigan jinoiy jazolash ko'zda tutilgan. Huquq sohasida jinoiy jazo (sodir etilgan jinoyat uchun sud tomonidan qo'llaniladigan), ma'muriy jazo (ma'muriy huquqbuzarlik uchun sud hamda ijro hokimiyati tomonidan qo'llaniladigan) hamda intizomiy jazolar (intizombuzarlik uchun ish yoki xizmatda rahbarlar tomonidan qo'llaniladi) farqlanadi.

**Jazo tushunchasi, maqsadi va vazifalari. Jinoyat-ijroiya huquqi normalarining amal qilishi.**

**Jazolash deganda** insonga nisbatan uning bo'ysunmaganligi yoki ahloqqa zid xulqiga javoban biron bir noxush, ma'qullanmaydigan chorani qo'llash tushuniladi. Individning ijtimoiy maqbul ahloq modeli va ijtimoiy harakatini shakllantirish uchun jazolashdan foydalaniladi. Jazolashdan ko'zda tutilgan maqsad – insonni tegishli xulq-atvorga undash. Bu inson xulqi nazoratining eng umumiy keng tarqalgan uslubidir.

Bolalarni uning ota-onasi yoki ularni o'rnini bosuvchilar, tarbiyachilar, o'qituvchilar jazolasalar, kattalarni, masalan, ishchi-xizmatchilarni ularning ish beruvchilari yoki uning vakolatli shaxslari jazolashlari mumkin. Harbiylarni nojo'ya qilmishlari uchun ularning

komandirlari, qul va krepostnoylarni ularning xo'jayinlari jazolar edi. Jinoyatchilik uchun esa, sudning hukmi bilan qo'llaniladigan jinoiy jazolash ko'zda tutilgan.

Huquq sohasida jinoiy jazo (sodir etilgan jinoyat uchun sud tomonidan qo'llaniladigan), ma'muriy jazo (ma'muriy huquqbuzarlik uchun sud hamda ijro hokimiyati tomonidan qo'llaniladigan) hamda intizomiy jazolar (intizombuzarlik uchun ish yoki xizmatda rahbarlar tomonidan qo'llaniladi) farqlanadi.

**Yuridik lug'atda "jazolash"** – qonun bilan o'rnatilgan huquqiy cheklashlar kompleksi tushunchasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu yo'sinda jazolash, inson huquq va manfaatlaridan mahrum qilish, ular hajmini kamaytirish yoxud amalga oshirilishini boshqacha alohida tartibga kiritish, boshqa fuqarolarga odatda qo'llanmaydigan majburiyatlar o'rnatishda ifodalanadi.

Azaldan jazolash uchun jinoyatchini qilmishning og'irligini hisobga olgan holda majburlash, ishchi uylariga joylashtirish, biron imtiyozdan mahrum qilish, jismoniy jazolash, ozodlikdan mahrum qilish, surgun qilish, qatl etish kabi usullar qo'llanilgan.

Jismoniy jazolash eng qadimgi jazolash choralardan biri bo'lib, u jazolanuvchiga jismoniy og'riq yetkazish yoki tana a'zosini mayib qilish orqali amalga oshirilgan, uni ikki xil turga ajratish mumkin:

**og'riqli, azoblovchi jismoniy qiynash** – tanaga turli qurol-vositalar orqali shikast yetkazish (xivchin bilan savalash, qamchilash, urish, kaltaklash va b.);

**jarohatlovchi mayiblash** – odamni biron a'zosidan mahrum qilish yoki shikast yetkazish (ko'r qilish, tilni sug'urib olish, qo'lni, quloqlarni, burunni kesib tashlash, axtalash va h.z.).

Jismoniy jazolashning qo'llanilishi Xamurappi qonunlari orqali ham tarixga ma'lum, keyinchalik ular buyuk Rim imperiyasida ham keng qo'llanilgan, feodal tuzum davrida ayniqsa ommalashgan. Faqat XYIII asrlarga kelib yevropa Ma'rifatchiligi uyg'onishi davrida ulardan voz kechishga to'g'ri kelgan.

**Qatl etish** – insonni hayotdan mahrum qiladigan o'lim jazosi. Mazkur jazo turi ham eng qadimiy lardan hisoblanadi. Azaldan talion, ya'ni "qonga qon, jonga jon" tamoyillarini amalga oshirish mobaynida vujudga kelgan. Ushbu tamoyilga asosan, bir insonni o'ldirganlik uchun o'limni qo'llash adolatli jazo hisoblangan. Bundan tashqari, ko'p mamlakatlarda mavjud bo'lgan qonli qasos olish, xun olish odatini o'lim jazosiga almashtirilishining davlat tomonidan tayinlanishi o'zgacha ahamiyatga ega bo'lgan.

**Surgun (badarg'a) qilish ham** – jinoiy jazoning bir turi bo'lib, mahkum etilganning doimiy yoki vaqtincha yashash joyidan mamlakat yoki davlat doirasida hukmda ko'rsatilgan muddatga biror uzoq manzilga jo'natishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat **kodeksi 42-moddasida jazo tushunchasiga ta'rif berilgan**. Unga ko'ra, jazo – jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat tomonidan sud hukmi bilan qo'llaniladigan va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasidir.

Jazo mahkumni ahloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatni davom ettirishiga to'sqinlik qilish hamda mahkum, shuningdek boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi.

- a) jarima;
- b) muayyan huquqdan mahrum qilish;
- b1) majburiy jamoat ishlari;
- v) axloq tuzatish ishlari;

- g) xizmat bo'yicha cheklash;
- d1) ozodlikni cheklash;
- ye) intizomiy qismga jo'natish;
- j) ozodlikdan mahrum qilish;
- z) umrbod ozodlikdan mahrum qilish.

Mahkumlarga asosiy jazolardan tashqari harbiy yoki maxsu unvondan mahrum qilish tarzidagi qo'shimcha jazo ham qo'llanishi mumkin.

Xizmat bo'yicha cheklash yoki intizomiy qismga jo'natish tariqasidagi jazolar faqat harbiy xizmatchilarga nisbatan qo'llaniladi.

Muayyan huquqdan mahrum qilish faqat asosiy jazo sifatidagina emas, balki qo'shimcha jazo tariqasida ham qo'llanilishi mumkin.

Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslanadi hamda Jinoyat-ijroiya Kodeksidan, shu- ningdek unga muvofiq qabul qilinadigan boshqa qonun hujjatlaridan tashkil topadi. Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlari: jinoiy jazoni, boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarini ijro etish printsiplari, tartibi va shartlarini; mahkumlarning huquqiy maqomini; mahkumlarni axloqan tuzatish vositalari hamda ularni qo'llash tartibini; mahkumlarni jazoni o'tashdan ozod qilish tartibini; jazoni ijro etuvchi muassasa va organlar faoliyati tartibini; mahkumlarni axloqan tuzatishda davlat hokimiyati va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, korxonalar, muassasa, tashkilotlarning, jamoat birlashmalari va fuqarolarning ishtirokini belgilaydi.

**2-savol. Jinoiy jazo klassifikatsiyasi. Jazo va boshqa jinoiy-huquqiy ta'sir choralarini ijro etuvchi muassasa va organlar, ularning turlari, vazifalari.**

**Jarima tariqasidagi jazoni tartibi (JIK 19-modda.)**

Jarima tariqasidagi jazoga hukm qilingan shaxs jarimani hukm qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab bir oylik muddat ichida ixtiyoriy ravishda to'lashi shart.

Mahkum belgilangan muddatda jarimani ixtiyoriy ravishda to'lamagan taqdirda, jarima davlat ijrochisi tomonidan majburiy tartibda undirib olinadi. Jarimani majburiy undirish ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilgan mahkumga nisbatan qo'llanilmaydi.

O'n sakkiz yoshga to'lmagan jinoyat sodir etgan va jarima tariqasidagi jazoga hukm qilingan shaxs hukm qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab olti oylik muddat ichida jarimani ixtiyoriy ravishda to'lashi shart.

Agar belgilangan muddatda jarimani to'liq miqdorda to'lashga mahkumning imkoni bo'lmasa, sud uning iltimosnomasiga ko'ra hukmning ijrosini Jinoyat-protsessual kodeksining 533-moddasida belgilangan tartibda kechiktirishi yoki jarimani bo'lib-bo'lib to'lashga ruxsat etishi mumkin.

**Jarimani to'lashdan bo'yin tovlash oqibatlari (JIK 20-modda.)**

Mahkumning jarimani to'lashdan bo'yin tovlashi bu jazoni Jinoyat kodeksining 44 va 82-moddalarida nazarda tutilgan tartibda va doirada boshqa jazo bilan almashtirishga sabab bo'ladi.

Muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazo ijrosi mahkumning yashash joyidagi ichki ishlar organlarining probatsiya bo'linmasi tomonidan amalga oshiriladi.

Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoga qo'shimcha ravishda tayinlangan muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazoning ijrosi asosiy jazoni ijro etuvchi organ tomonidan amalga oshiriladi.

Ichki ishlar organlarining probatsiya bo'linmasi:

muayyan huquqdan mahrum qilingan mahkumlarni ro'yxatga oladi;

mahkum ishlaydigan korxonada, muassasa, tashkilot ma'muriyatiga va (yoki) muayyan faoliyat turi bilan shug'ullanish uchun berilgan ruxsatnomani bekor qilishga vakolatli organga hukm talablarini ijro etish to'g'risida xabarnoma yuboradi;

mahkumning hukmda ko'rsatilgan taqiqlarga rioya etishini tekshiradi;

mahkum ishlaydigan korxonada, muassasa, tashkilot ma'muriyati, shuningdek muayyan faoliyat turi bilan shug'ullanish uchun berilgan ruxsatnomani bekor qilishga vakolatli organlar tomonidan hukm talablari qanday bajarilayotganligini tekshiradi.

Mahkum harbiy yoki muqobil xizmatga chaqirilgan yoxud kirgan taqdirda inspeksiya hukmning nusxasini mudofaa ishlari bo'limiga yoki mahkum xizmatni o'tayotgan joyga yuboradi.

**Mahkum ishlaydigan korxonada, muassasa, tashkilot ma'muriyati jazolarini ijro etish inspeksiya tomonidan xabarnoma olgan kundan boshlab uch kun ichida quyidagilarni amalga oshirishga majbur:**

mahkum egallash va shug'ullanish huquqidan mahrum etilgan lavozimdan yoki mehnat faoliyati turidan uni ozod qilish;

jazolarini ijro etish inspeksiya tomonidan hukm talablari ijro etilganligi to'g'risida, tegishli hujjatlarni ilova etgan holda, xabar yo'llash;

mahkum boshqa ishga o'tkazilgan yoki u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilingan taqdirda, bu haqda jazolarini ijro etish inspeksiya tomonidan xabar qilish.

Muayyan faoliyat turi bilan shug'ullanish uchun berilgan ruxsatnomani bekor qilishga vakolatli organ jazolarini ijro etish inspeksiya tomonidan xabarnoma olgan kundan boshlab uch kun ichida mahkum shug'ullanishi taqiqlangan faoliyat turi uchun berilgan ruxsatnomani bekor qilib, tegishli hujjatni olib qo'yishga va bu haqda inspeksiya tomonidan xabar yo'llashga majbur.

Muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazoga hukm qilingan shaxs hukm talablarini bajarishga, jazolarini ijro etish inspeksiya tomonidan mazkur jazoni o'tash bilan bog'liq hujjatlarni taqdim etishga, yashash va ish joyidagi o'zgarishlar yoki mehnat shartnomasi bekor qilinganligi haqida inspeksiya tomonidan xabardor qilishga, chaqiruvga binoan inspeksiya tomonidan hozir bo'lishga majbur. Mahkum hozir bo'lmagan taqdirda u belgilangan tartibda majburan keltirilishi mumkin.

**Jazoni ijro etish tartibi va shartlari(JIK 25<sup>1</sup>-modda)**

Majburiy jamoat ishlari tariqasidagi jazoni ijro etish mahkumning yashash joyidagi ichki ishlar organlarining jazolarini ijro etish inspeksiya tomonidan amalga oshiriladi. Mahkum majburiy jamoat ishlari o'tashi mumkin bo'lgan joylar (ob'ektlar) va majburiy jamoat ishlarining turlari jazolarini ijro etish inspeksiya tomonidan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining taklifiga ko'ra belgilanadi.

Majburiy jamoat ishlariga hukm qilingan shaxs jazoni o'tashga sudning hukm qonuniy kuchga kirganligi haqidagi xabarnomasi jazolarini ijro etish inspeksiya tomonidan kelib tushgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay jalb qilinadi.

Mahkumga asosiy ish joyidan navbatdagi har yilgi mehnat ta'tilining berilishi majburiy jamoat ishlari tariqasidagi jazoning ijrosini to'xtatib turmaydi.

Mahkum majburiy jamoat ishlari o'tashi davrida Jinoyat kodeksi 75-moddasining beshinchi qismida nazarda tutilgan holatlar yuzaga kelgan taqdirda, jazolarini ijro etish

inspeksiyasi tomonidan sudga mahkumni jazoni o'tashdan ozod qilish to'g'risida taqdimnoma yuboriladi.

Majburiy jamoat ishlari bepul asosda bajariladi.

Majburiy jamoat ishlari tariqasidagi jazoning ijrosini tashkil etish tartibi va majburiy jamoat ishlari turlarining ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Jazolarni ijro etish inspeksiyasi:

mahkumlarning hisobini yuritishi;

mahkumlarga jazoni o'tash tartibi va shartlarini tushuntirishi;

mahkum tomonidan jazoni o'tash shartlariga rioya etilishini nazorat qilishi;

majburiy jamoat ishlariga hukm qilingan shaxslar jazoni o'taydigan joyda (ob'ektda) tashkilotlar (organlar) tomonidan hukm talablarining bajarilishini nazorat qilishi;

mahkumlar ishlagan vaqt hisobini yuritishi va tashkilotlarning (organlarning) majburiy jamoat ishlari o'taladigan joylar (ob'ektlar) bo'yicha mahkumlar ishlagan vaqt hisobga olinishi to'g'risidagi ma'lumotlarni solishtirib chiqishni vaqti-vaqti bilan amalga oshirishi shart.

#### **Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining majburiyatlari(JIK 25<sup>3</sup>-modda)**

Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari:

jazolarni ijro etish inspeksiyasiga mahkumlar majburiy jamoat ishlarini o'tashi mumkin bo'lgan joylarning (ob'ektlarning) ro'yxatini va majburiy jamoat ishlarining turlarini kelishuv uchun taqdim etadi;

mahkumlar tomonidan majburiy jamoat ishlarini o'tash uchun zarur sharoitlar tashkil etilishini ta'minlaydi;

majburiy jamoat ishlariga hukm qilingan shaxslarning mehnatini qo'llash samaradorligini o'rganadi.

#### **Tashkilot (organ) ma'muriyatining hukmni ijro etish borasidagi majburiyatlari(JIK 25<sup>4</sup>-modda)**

Mahkumlar tomonidan majburiy jamoat ishlari o'taladigan joydagi (ob'ektdagi) tashkilotning (organning) ma'muriyati:

majburiy jamoat ishlariga hukm qilingan shaxslar tomonidan bajariladigan ishlarni tashkil etishi;

ishlarni bajarish uchun tegishli sharoitlarni ta'minlashi;

mahkumlarni jazoni o'tash soatlariga mos bo'lgan ish hajmi bilan ta'minlashi;

mahkumlar tomonidan o'zlari uchun belgilangan ishlarning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirishi;

jazolarni ijro etish inspeksiyasiga mahkumlar tomonidan ishlab berilgan soatlar miqdori, ular bajargan ishlarning sifati va mahkumlarning xulq-atvori haqida ma'lumotlar taqdim etishi;

mahkumlar majburiy jamoat ishlarini bajarish bilan bog'liq holda mayib bo'lgan taqdirda, ularga qonunchilikda belgilangan tartibda zararning o'rnini qoplash choralarini ko'rishi shart.

Majburiy jamoat ishlariga hukm qilingan shaxsning majburiyatlari(JIK 255-modda)

Majburiy jamoat ishlariga hukm qilingan shaxs:

sudning hukmi, ajrimi yoki qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e'tiboran o'n kun ichida yashash joyidagi jazolarni ijro etish inspeksiyasida hisobga turishi;

majburiy jamoat ishlarini bajarish va o'tash shartlariga rioya etishi;

o'zi uchun belgilangan joyda (ob'ektda) ishlashi hamda majburiy jamoat ishlarining belgilangan muddatlari va hajmlarini ishlab berishi;

majburiy jamoat ishlarini o'tash joyidagi (ob'ektidagi) tashkilotning (organning) ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya etishi, mehnatga vijdonan munosabatda bo'lishi;

yashash joyi o'zgarganligi haqida jazolarni ijro etish inspeksiyasini xabardor qilishi, shuningdek uning chaqiruviga binoan yetib kelishi shart.

#### **Jazo muddatini hisoblash (JIK 25<sup>6</sup>-modda)**

Majburiy jamoat ishlari tariqasidagi jazo muddati mahkum majburiy jamoat ishlarini o'tashi mobaynidagi soatlar bilan hisoblanadi.

Majburiy jamoat ishlari vaqti dam olish kunlari va mahkum o'qishda yoki asosiy ishda band bo'lmagan kunlari to'rt soatdan, ish kunlari, o'quv darslari (mashg'ulotlar) o'tkaziladigan kunlari esa, ish yoki o'qishdan oldin yoki keyin ikki soatdan, mahkumning iltimosiga ko'ra esa, to'rt soatdan oshmasligi lozim. Mahkum o'taydigan majburiy jamoat ishlarining vaqti, qoida tariqasida, haftasiga o'n ikki soatdan kam bo'lmasligi lozim.

Voyaga yetmagan mahkum tomonidan o'taladigan majburiy jamoat ishlari vaqti dam olish kunlari va mahkum o'qishda yoxud asosiy ishda band bo'lmagan kunlari uch soatdan, ish kunlari, o'quv darslari (mashg'ulotlar) o'tkaziladigan kunlari esa, ikki soatdan, biroq haftasiga uch kundan oshmasligi lozim.

Mahkumga bog'liq bo'lmagan holatlar yuzaga kelgan taqdirda, jazolarni ijro etish inspeksiyasi mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan kelishilgan holda mahkumga hafta yoki oy mobaynida majburiy jamoat ishlari soatlarining kamroq miqdorini ishlab berish uchun ruxsat etishga haqli.

#### **Jazoni o'tash tartibi va shartlarini buzish oqibatlarini(JIK 25<sup>7</sup>-modda)**

Majburiy jamoat ishlariga hukm qilingan shaxs jazoni o'tash tartibi va shartlarini buzganligi uchun jazolarni ijro etish inspeksiyasi uni qoidabuzarlik oqibatlarini haqida qonunchilikka muvofiq yozma shaklda ogohlantiradi.

Majburiy jamoat ishlarini o'tashdan bo'yin tovlagan mahkumga nisbatan jazolarni ijro etish inspeksiyasi Jinoyat kodeksining 451yoki 821-moddalariga muvofiq majburiy jamoat ishlarini jazoning boshqa turi bilan almashtirish to'g'risida sudga taqdimnoma yuboradi.

#### **Majburiy jamoat ishlarini o'tashdan bo'yin tovlash(JIK 25<sup>8</sup>-modda).**

Quyidagilar majburiy jamoat ishlarini o'tashdan bo'yin tovlavchilar deb e'tirof etiladi:

o'n kun ichida hisobga turmagan, shuningdek jazoni o'tashdan bo'yin tovlash maqsadida yashiringan mahkum;

yozma ogohlantirish olganidan so'ng, o'ziga bog'liq bo'lmagan holatlar mavjud bo'lmasada, majburiy jamoat ishlarida bir oy davomida ikki martadan ko'p ishtirok etmagan mahkum;

yozma ogohlantirish olganidan so'ng majburiy jamoat ishlarini o'tash joyidagi (ob'ektidagi) tashkilotning ichki mehnat tartibi qoidalarini bir oy davomida uch martadan ko'p buzgan mahkum.

Jazoni o'tashdan bo'yin tovlavotgan mahkumning turgan joyi noma'lum bo'lgan taqdirda, unga nisbatan qidiruv e'lon qilinadi.

#### **Axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazoni ijro etish.**

#### **Jazoni ijro etish tartibi(JIK 26-modda)**

Axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazo ijrosi mahkumning yashash joyidagi ichki ishlar organlarining jazolarni ijro etish inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Mahkum doimiy yashash joyiga ega bo'lmagan taqdirda hukmning ijrosi hukm chiqarilgan joydagi jazolarni ijro etish inspeksiya zimmasiga yuklanadi.

Axloq tuzatish ishlari korxonalarda, muassasalarda va tashkilotlarda o'taladi.

Jazoni o'z ish joyida o'tash sharti bilan axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslar sudlangunga qadar o'zlari ishlagan korxonada, muassasa yoki tashkilotda mehnat faoliyatini davom ettiraveradilar.

Jazoni boshqa joylarda o'tash sharti bilan axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslar jazolarni ijro etish inspeksiya belgilab beradigan korxonada, muassasa va tashkilotlarga yuboriladi. Voyaga yetmagan mahkumlar yashash joyidagi korxonada, muassasa va tashkilotlarga yuboriladi.

#### **probatsiya bo'linmasining majburiyatlari (JIK 27-modda)**

Ichki ishlar organlarining probatsiya bo'linmasi:

axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslarni ro'yxatga oladi;

mahkumga jazoni o'tashning tartibi va shartlarini tushuntiradi;

boshqa joylarda o'taladigan axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslarni ishga jo'natadi;

mahkumlar tomonidan jazoni o'tash shartlariga rioya etilishini tekshiradi;

mahkum ishlaydigan korxonada, muassasa va tashkilot ma'muriyati tomonidan hukm talablari ijro etilishini tekshiradi;

mahkumni qidirib topish yuzasidan dastlabki tadbirlarni o'tkazadi, zarur materiallarni tayyorlaydi va tegishli xizmatga oshiradi;

axloq tuzatish ishlarini boshqa joylarda o'tayotgan shaxslar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish uchun ruxsatnoma berish masalasini ko'rib chiqadi.

#### **Korxonada, muassasa, tashkilot ma'muriyatining hukmni ijro etish borasidagi majburiyatlari (JIK 28-modda.)**

Mahkum ishlaydigan korxonada, muassasa, tashkilot ma'muriyati quyidagilarga majbur:

mahkumning ish haqidagi to'g'ri va o'z vaqtida chegirib qolinishini hamda chegirib qolingani davlat foydasiga o'tkazilishini ta'minlash;

mahkumga nisbatan qo'llanilgan rag'batlantirish va intizomiy jazo choralari haqida, uning jazoni o'tashdan bo'yin tovlayotgani, boshqa ishga o'tkazilganligi yoki u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinganligi haqida jazolarni ijro etish inspeksiya xabardor etish.

#### **Mahkumning majburiyatlari (JIK 29-modda)**

Axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazoga hukm qilingan shaxs hukm talablarini bajarishga, jazolarni ijro etish inspeksiya mazkur jazoni o'tash bilan bog'liq hujjatlarni taqdim etishga, yashash va ish joyidagi o'zgarishlar yoki mehnat shartnomasi bekor qilinganligi haqida inspeksiya xabardor qilishga, chaqiruvga binoan inspeksiya hozir bo'lishga majbur. Mahkum hozir bo'lmagan taqdirda u belgilangan tartibda majburan keltirilishi mumkin.

Jazolarni ijro etish inspeksiya belgilaydigan joylarda jazoni o'tash muddati mobaynida inspeksiyaning yozma ruxsatisiz mehnat shartnomasini mahkumning tashabbusi bilan bekor qilish taqiqlanadi. Inspeksiya ruxsatnoma berishni rad etgan taqdirda yuqori mansabdor shaxs yoki sudga shikoyat qilish mumkin.

#### **Jazo muddatini hisoblash (JIK 30-modda)**

Axloq tuzatish ishlari muddati mahkum ishlagan va uning ish haqidan ushlab qolingani davr mobaynidagi yillar, oylar va kunlar bilan hisoblanadi. Mahkum ishlab bergan kunlar miqdori sud tomonidan belgilangan jazo muddatining har oyiga to'g'ri keladigan ish kunlari miqdoridan kam bo'lmasligi kerak. Agar mahkum ana shu miqdordagi ish kunlarini ishlab bermagan bo'lsa va ishlanmagan kunlarni jazo muddatiga qo'shib hisoblash uchun ushbu Kodeksda belgilab qo'yilgan asoslar bo'lmasa, axloq tuzatish ishlarini o'tash mahkum belgilangan ish kunlari miqdorini to'liq ishlab berguniga qadar davom etadi.

Ish vaqti jamlab hisobga olinadigan korxonada, muassasa va tashkilotlarda ishlayotgan mahkumlarning jazoni o'tash muddati ish soatlarining normal miqdoriga amal qilingan holda, hisobga olinadigan davrdagi ish vaqti muddatidan kelib chiqib hisoblanadi.

Jazoni o'tash muddati korxonada, muassasa, tashkilot ma'muriyati jazolarni ijro etish inspeksiyasidan xabarnoma olgan kundan, boshqa joylarda o'taladigan axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslar uchun esa — ular jazoni o'tash uchun yuborilgan korxonada, muassasa, tashkilotda ish boshlagan kundan boshlanadi.

Mahkum ishlagan, ammo qonunga muvofiq uning ish haqi saqlanib turgan vaqt, shuningdek mahkum ishsiz deb topilgan vaqt axloq tuzatish ishlarini o'tash muddatiga qo'shib hisoblanadi.

**Jazoni o'tash muddatiga quyidagilar qo'shib hisoblanmaydi:**

qonunchilikka muvofiq vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi to'lanmaydigan kasallik vaqti;

qamoq tariqasidagi ma'muriy jazoni o'tash vaqti, boshqa jinoyat sodir etganligi munosabati bilan qamoqda saqlangan vaqt.

**Mahkumning ish haqidan chegirib qolish tartibi (JIK 31-modda)**

Hukmda nazarda tutilgan chegirma mahkumning asosiy ish joyidagi ish haqining barcha turidan, har bir ishlangan oy uchun maosh to'lash chog'ida, qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

**Axloq tuzatish ishlarini o'tashdan bo'yin tovlash oqibatlari (JIK 32-modda)**

Mahkum axloq tuzatish ishlarini o'tashdan bo'yin tovlagan taqdirda jazolarni ijro etish inspeksiyasi o'talmagan muddatni ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan almashtirish haqida Jinoyat kodeksining 46 va 83-moddalarida nazarda tutilgan tartibda sudga taqdimnoma kiritadi.

**Ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoni ijro etish.**

**Jazoni ijro etish tartibi (JIK 44<sup>1</sup>-modda)**

Ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoni ijro etish mahkumning yashash joyidagi ichki ishlar organlarining jazolarni ijro etish inspeksiyasi tomonidan yoki sud belgilaydigan, mahkumlarning sud belgilagan taqiqlarga (cheklashlarga) rioya etishi ustidan nazoratni amalga oshiradigan boshqa organ tomonidan amalga oshiriladi.

**Ozodlikni cheklash muddatini hisoblash (JIK 44<sup>2</sup>-modda)**

Ozodlikni cheklash muddati mahkum jazolarni ijro etish inspeksiyalarida hisobga qo'yilgan kundan boshlab hisoblanadi.

Mahkum uzrli sabablarsiz o'zboshimchalik bilan yashash joyida bo'lmagan vaqti ozodlikni cheklash muddatiga qo'shib hisoblanmaydi.

**Ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoni o'tash tartibi (JIK 44<sup>3</sup>-modda)**

Ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoga hukm qilingan shaxs sud tomonidan belgilangan taqiqlarga (cheklashlarga) rioya etishi, shuningdek o'zining jazoni o'tashi bilan bog'liq masalalar bo'yicha og'zaki yoki yozma tushuntirishlar berish uchun chaqiruv bo'yicha jazolarni ijro etish inspeksiyasiga kelishi shart.

Ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoga hukm qilingan shaxsga nisbatan elektron kuzatuv vositalari qo'llanilishi mumkin.

Muayyan vaqtda yashash joyidan ketishga, tegishli ma'muriy hudud doirasida joylashgan ma'lum joylarga borishga yoxud tegishli ma'muriy hudud doirasidan chiqish uchun ruxsatnoma, shuningdek yashash joyini o'zgartirish uchun ruxsatnoma jazolarni ijro etish inspeksiyasi tomonidan beriladi. Qaror taqiqlarning (cheklashlarning) xususiyatidan, mahkumning shaxsidan, uning xulq-atvoridan, tasdiqlovchi hujjatlar mavjudligidan kelib chiqib, alohida hollarda qabul qilinadi.

Uy-joyidan chiqib ketishiga butunlay taqiq belgilangan mahkumning doimiy yashash joyidan ketishi uchun ruxsatnomaga, mahkumning tegishli ma'muriy hudud doirasidan chiqishi uchun ruxsatnomaga, shuningdek mahkumning yashash joyini o'zgartirishi uchun ruxsatnomaga prokuror tomonidan sanktsiya beriladi.

Agar ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoga hukm qilingan shaxs jazoni o'tash davrida o'zining jinoiy qilmishlarini anglab yetgani, tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan, yetkazgan moddiy va ma'naviy zararining o'rnini qoplagan bo'lsa, jazolarni ijro etish inspeksiyasi ilgari mahkumga belgilangan taqiqlarni (cheklashlarni) to'liq yoki qisman bekor qilish to'g'risida sudga taqdimnoma kiritadi.

Ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoni o'tash tartibi va shartlari mahkum tomonidan buzilganligi uchun jazolarni ijro etish inspeksiyasi unga nisbatan ogohlantirish tarzidagi intizomiy jazo chorasini qo'llaydi.

Mahkum ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoni o'tashdan qasddan bo'yin tovlagan, shuningdek sud tomonidan o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmagan taqdirda, jazolarni ijro etish inspeksiyasi sudga mahkum uchun ozodlikni cheklashning o'talmagan muddatini jazoning boshqa turiga almashtirish haqida taqdimnoma kiritadi.

**Quyidagilar ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoni o'tashdan qasddan bo'yin tovlavchilar deb e'tirof etiladi:**

a) o'ziga nisbatan sud tomonidan belgilangan taqiqlarni (cheklashlarni) buzishga yo'l qo'yib bo'lmasligi to'g'risida ogohlantirish tarzida intizomiy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil ichida jazoni o'tash tartibi va shartlarini buzishga yo'l qo'ygan mahkum;

b) o'ziga nisbatan texnik nazorat vositalaridan foydalanish qoidalarini buzgan mahkum;

v) yashash joyidan yashiringan, qayerda ekanligi uch sutkadan ortiq vaqt ichida aniqlanmagan mahkum;

g) yashash joyidagi jazolarni ijro etish inspeksiyasiga belgilangan muddatdan uch sutkadan ortiq vaqt mobaynida kelmagan mahkum.